

**«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI» AJ
yagona aksiyadorining
2016 yil “30” sentyabrdagi
10 – sonli Qarori bilan
“TASDIQLANGAN”**

**«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI»
Aksiyadorlik jamiyatining ICHKI NAZORAT TO‘G‘RISIDAGI NIZOMI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom aksiyadorlik jamiyatining Ichki nazorat to'g'risidagi ushbu Nizomi (bundan buyon matnda – "Nizom") O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, boshqa me'yoriy-normativ hujjatlar, «O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» aksiyadorlik jamiyatining (bundan keyin matnda - jamiyat) Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrda № 9-sonli bayonnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom ichki nazorat tizimining maqsadi va vazifalarini, uning ishlash tamoyillarini hamda Jamiyat AJning ichki nazorat uchun javobgar organlari va shaxslarini belgilaydi.

2. ICHKI NAZORAT TIZIMI TAVSIFI VA MAQSADLARI

3. Ichki nazorat – bu Jamiyat AJning faoliyatiga o'rnatilgan va risklarni boshqarish jarayonlari samaradorligini oshirishga, Jamiyat maqsadlariga erishishga nisbatan quyidagi sohalarda asoslangan va yetarli tasdig'ini qo'lga kiritish maqsadida yana-da maqbul tarzda nazorat qilish va korporativ boshqarishga qaratilgan uzluksiz amal qiluvchi jarayon:

- ishlash, foyda olish va aktivlarni himoya qilish samaradorligi darajasini qo'shgan holda faoliyatining samaradorligi va unumdorligi;

- moliyaviy hisobotning ishonchliligi va shubhasiz to'g'riligi;

- qabul qilinadigan, faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik va huquq normalariga mosligi.

4. Ichki nazorat tizimi – bu Jamiyatda tashkil etilgan, ichki hujjatlar bilan tartibga solinuvchi tashkiliy tuzilma va Kuzatuv kengashi, rahbariyat hamda barcha darajalardagi va barcha funksiyalar bo'yicha boshqa xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan, nazorat choralari, ichki nazorat protseduralari va usullari majmui.

5. Ichki nazorat protseduralari – bu jamiyat Taftish komissiyasi tomonidan, jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan, AJ Ijroiya organi (Boshqaruvi) tomonidan hamda Jamiyat jamiyatning ichki nazoratni amalga oshirishga vakil etilgan bo'linmalari (bundan buyon - jamiyatbo'linmalari) tomonidan

amalga oshiriladigan va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka va Jamiyat ichki hujjatlariga xilofliklarni aniqlashga, Jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishish samaradorligini baholashga hamda ichki nazorat subyektlarining ichki nazorat protseduralarini amalga oshirish jarayonida bir-birlari bilan o'zaro hamkorligiga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

6. Ichki nazoratning asosiy maqsadi Jamiyat o'z oldiga qo'yilgan faoliyati maqsadlariga ayniqsa samarali tarzda erishayotganligiga oqilona ishonch hosil qilishdan iborat.

7. Ichki nazorat quyidagilarni tezkor rejimda ta'minlashga da'vat etilgan:

aktivlarining butligi, jamiyatresurslaridan tejamkor va samarali foydalanish;

amaldagi qonunchilikka, Jamiyat ichki siyosati, standartlari va protseduralariga rioya etish;

jamiyatbiznes rejalarining bajarilishi;

jamiyatning buxgalterlik yozuvlari, moliyaviy hisobotlari va boshqarishga oidaxborotlarning to'liqligi;

risklar jamiyatfaoliyatida yuzaga kelishi chog'ida, ularni aniqlash, identifikatsiyalash va tahlil etish;

jamiyat faoliyatidagi, o'z ichiga risklarni boshqarish bo'yicha, ular tomonidan maksimal ziyon yetkazilishi paytiga qadar o'z vaqtida va mos qarorlar qabul qilishni oluvchi, risklarni rejalashtirish va boshqarish;

jamiyatning ishbilarmon doiralarda va iste'molchilar orasida yaxshi obro'-e'tiborini qozonish va boy bermaslik.

3. ICHKI NAZORAT TIZIMINING ISHLASH TAMOYILLARI

8. Jamiyatda ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillar asosida quriladi:

Uzluksiz ishlab turish - ichki nazorat tizimining doimiy va munosib tarzda ishlab turishi Jamiyatga me'yorlardan har qanday og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash va ularning kelgusida yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi;

Ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobdorligi – har bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilishi sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat qilinadi;

Majburiyatlarning taqsimlanishi – Jamiyat nazorat funksiyalarining bir-birini takrorlashiga yo‘l qo‘ymaydi hamda mazkur funksiyalar xodimlar o‘rtasida shu tariqa taqsimlanmog‘i lozimki, aynan bir shaxs muayyan aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, aktivlarning butligini ta‘minlash va ularning inventarizatsiyasini o‘tkazish funksiyalarini birlashtira olmasin;

Operatsiyalarni munosib tarzda ma‘qullash va tasdiqlash – Jamiyat barcha moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini vakil etilgan shaxslar tomonidan ularning tegishli vakolatlari doirasida tasdiqlash tartibini o‘rnatishga intiladi;

Jamiyatning kundalik ichki nazoratni amalga oshiruvchi bo‘linmasining tashkiliy xolisligini ta‘minlash hamda uning Kuzatuv kengashi oldida bevosita funksional hisobdorligi;

Jamiyatda ishlaydigan barcha ichki nazorat subyektlarining nazorat funksiyalarini munosib ravishda bajarish uchun javobgarligi;

Ichki nazoratni AJ barcha bo‘linmalari va xizmatlarining aniq ravshan o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshirish;

Doimiy rivojlanish va takomillashish – Jamiyat ichki nazorat tizimiga, u yangi masalalarni hal etish zaruratini hisobga olgan holda moslashtirila olishi, mazkur tizimni o‘zi kengaytira va takomillashtira olishi uchun moslashuvchan rostdash sharoitlarini ta‘minlashga intiladi;

Og‘ishlar to‘g‘risidagi xabarlarni o‘z vaqtida yetkazish – Jamiyatda tegishli xabarlarni og‘ishlarni bartaraf etish borasida qarorlar qabul qilishga vakil etilgan shaxslarga yetkazishning maksimal qisqa muddatlari o‘rnatilgan;

Ichki nazorat tizimining murakkablik darajasi va nazorat qilinadigan obyektning murakkablik darajasi o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblik;

Jamiyatning nazorat yo‘lga qo‘yiladigan faoliyati sohalaridagi muhimliklarni aniqlash – ichki nazorat tizimi bilan qamrab olinadigan strategik yo‘nalishlar, garchi ularning ishlashini (“chiqimlarning – iqtisodiy samaraga” nisbati) o‘lchash qiyin bo‘lsa ham, ajratiladi;

Turli xildagi obyektlar ustidan ichki nazoratning kompleks xarakteri.

4. ICHKI NAZORAT TIZIMINING TARKIBIY QISMLARI

9. Ichki nazorat tizimi o'z ichiga quyidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarni oladi:

O'z ichiga kompaniya xodimlarining axloqiy qadriyatlari va kompetentligini, idora etish siyosatini, rahbariyat tomonidan vakolat va mas'uliyatlarning taqsimlanishi usulini, tashkil etish tarkibini va xodimlar malakasini oshirishni hamda Kuzatuv kengashi tomonidan rahbarlik va boshqaruvni oluvchi nazorat muhiti;

Risklarni baholash – o'zida turli darajalarda o'zaro aloqador bo'lgan muayyan vazifalarga erishish chog'ida tegishli risklarni identifikatsiyalash va tahlil etishni ifoda etadi;

Rahbariyat farmoyishlari bajarilayotganligini kafolatlashga ko'maklashuvchi umumlashtiruvchi siyosat va protseduralar hamda o'z ichiga ijobiy baholar, sanksiyalar, tasdiqlar berish, tekshirishlar, joriy faoliyat nazorati, aktivlar xavfsizligi va vakolatlar taqsimlanishi kafolati singari bir qator o'ta turli-tuman harakatlarni oluvchi nazorat faoliyati;

Ma'lumotlarni o'z vaqtida samarali aniqlash, ularni ro'yxatga olish va almashish, shu jumladan, ichki nazoratning barcha subyektlarida Jamiyat tomonidan qabul qilingan ichki nazorat siyosati va protseduralarini anglashni va ularning ijrosini ta'minlashni shakllantirish maqsadida axborotlar almashishning samarali kanallarini yaratishni o'z ichiga oluvchi axborot ta'minoti va axborot almashinuvi faoliyati. Jamiyat axborotga ijozat etilmagan kirishlardan himoya choralarini qo'llaydi;

Monitoring – o'z ichiga boshqaruv va nazorat funksiyalarini oluvchi jarayon, mazkur jarayonda vaqt o'tishi bilan tizimning ishlashi sifati baholanadi. Ichki nazorat tizimining baholanishi moliyaviy hisobotning ishonchliligiga ta'sir ko'rsatuvchi xatolarning yuzaga kelish ehtimolini aniqlash, ushbu xatolarning muhimligini aniqlash hamda ichki nazorat tizimining o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishni ta'minlashga qodirligini aniqlash uchun o'tkaziladi.

5. ICHKI NAZORAT UCHUN JAVOBGAR ORGANLAR VA SHAXSLAR

10. Ichki nazorat jamiyat Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi, Ijroiya organi (Boshqaruvi), Ichki audit xizmati tomonidan hamda Jamiyat barcha darajalardagi boshqa xodimlari tomonidan amalga oshiriladi va shuning barobarida ulardan har biri ichki nazorat uchun u yoki bu javobgarlikni o'taydi.

11. Jamiyatda ishlab turuvchi bo'linmalarning funksiyalari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi Jamiyat tashkiliy-idoraviy hujjatlari bilan ko'zda tutilgan. Mazkur hujjatlar, xuddi shuningdek, ichki nazorat masalalariga bevosita yoki bilvosita daxl qiluvchi boshqa hujjatlar ushbu Nizomga zid bo'lishi mumkin emas.

12. Jamiyatmoliyaviy-xo'jalik faoliyati nazoratining tizimlilik xarakterini ta'minlash maqsadida ichki nazorat protseduralarini o'tkazish Jamiyat vakil etilgan bo'linmasi – ichki nazoratga, Jamiyat boshqa organlari va bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikka javobgar bo'lgan Ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

13. Kuzatuv kengashining funksiyalariga quyidagilar kiradi:

Ichki nazorat tizimining muayyan operatsiyalari va strategiyalarining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va ma'qullash;

Jamiyatning yagonaaksiyadorining Yillik umumiy yig'ilishida o'tkazilgan tahlillar va ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaraliligining baholanish natijalari haqida, jamiyat ijroiya organining, ichki va tashqi auditlarning, Taftish komissiyassining muntazam hisobotlariga, boshqa manbalardan olingan axborotlar va moliyaviy nazorat, operatsiyaviy nazorat, qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat, ichki siyosat va protseduralar nazoratini qo'shgan holda, o'z kuzatishlariga asoslangan holda har yili axborot berish;

jamiyat ichki nazoratga javobgar bo'linmasining tuzilishi va tarkibini aniqlash;

Ichki nazorat protseduralarini doimiy takomillashtira borish.

14. Uning ishlab turishi uchun javobgarlik, Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan jamiyat ichki nazorat sohasidagi siyosatga muvofiq ijroiya organga (Boshqaruvga) yuklatiladi. jamiyat ijroiya organi ichki nazorat tizimi protseduralarini tatbiq etadi va uning Kuzatuv kengashini jamiyat uchun barcha ulkan risklar, ichki nazorat tizimidagi jiddiy kamchiliklar hamda ularni bartaraf bo'yicha tadbirlar rejalari va natijalari haqida o'z vaqtida xabardor etib, samarali ishlashini ta'minlaydi.

15. Har qanday darajadagi bo'linmalar xodimlari (rahbarlarni ham qo'shgan holda) nazoratni amalga oshirish bo'yicha strategiyalar va protseduralar ishlab chiqishda o'z vakolatlari doirasida bevosita ishtirok etadilar. Ularning majburiyatlariga nostandart vaziyatlar va muammolarni, ularning yuzaga kelishiga ko'ra uddalash vazifasi kiradi. Ahamiyatli masalalar yoki aynan bir

bitim doirasia yuzaga kelgan risklar bo'yicha xodimlar Jamiyat AJning yuqori rahbariyatiga xabar beradilar.

16. Jamiyatva uning xolis bo'linmalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish doimiy amal qiluvchi ichki nazorat organi – Taftish komissiyasiga yuklatiladi, uning roli, maqsadi, vazifalari, vakolatlari Taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizomda aks ettirilgan.

18. Ichki nazorat protseduralari ijro etilishi, ya'ni aynan jamiyattomonidan sodir etiladigan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va umuman olganda jamiyat Ustaviga, uning xolis bo'linmalariga mosligi ustidan hamda buxgalteriya va moliyaviy hisobotning to'laligi va ishonchliligi ustidan muntazam nazoratni amalga oshirish uchun javobgarlik Ichki audit xizmati zimasi ga yuklangan, uning roli, maqsadi, vazifalari, vakolatlari, shuningdek, Ichki audit xizmatiga o'tkazilgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini baholash uchun materiallar va hujjatlarni taqdim etish muddatlari hamda jamiyatmansabdor shaxslari va xodimlarining ularni ushbu muddatlarda taqdim etmaganliklari uchun javobgarligi Ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizomda aks ettirilgan.

Ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizom Kuzatuv kengashi bilan kelishiladi, Ijroiya organ (Boshqaruv) tomonidan tasdiqlanadi.

19. JamiyatIchki audit xizmati ichki auditnatijalari, ichki nazorat tizimi to'g'risida Kuzatuv kengashi oldida hisobot beradi. Jamiyat ichki audit xizmati funksional jihatdan Kuzatuv kengashiga, audit bo'yicha esa Ijroiya organi (Boshqaruv)ga bo'ysunadi.

20. Basharti shaxslar:

- iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni yoki davlat hokimiyatiga, davlat xizmati yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlaridagi xizmat manfaatlariga qarshi jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan bo'lsalar hamda ularga nisbatan tadbirkorlik sohasidagi yoki moliya, soliq va yig'imlar, qimmatli qog'ozlar bozori sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jazo qo'llangan bo'lsa;

- jamiyatning ijroiya organi tarkibiga kirsalar;

- Jamiyat bilan raqobatlashuvchi yuridik shaxslarning ishtirokchilari, bosh direktori (boshqaruvchisi), boshqaruv organi a'zolari yoki xodimlari hisoblansalar;

Jamiyat ichki audit xizmatida lavozimlarni egallash huquqiga ega emaslar.

Ichki audit xizmati tarkibiga kiruvchi shaxslarga nisbatan o'zga talablar Kuzatuv kengashi tomonidan yoki Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda Ijroiya organ (Boshqaruv) tomonidan o'rnatilishi mumkin.

21. Ichki nazorat tizimining munosib tarzda ishlashi, shuningdek, xodimlarning professionalizmiga ham bog'liq. Jamiyat kadrlarni tanlash, yollash, o'qitish, tayyorlash va xodimlarning xizmat bo'yicha martabasini oshirish tizimi ularning yuqori malakasini va ular tomonidan yuqori axloqiy standartlarga rioya etilishini ta'minlashi uchun bor kuchini ishga soladi.

6. ICHKI NAZORAT PROTSEDURALARI VA USULLARI

22. Jamiyatichki nazorat protseduralari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Jamiyatni boshqarishning turli darajalarida o'zaro aloqador va zid kelmaydigan maqsadlar va vazifalarni aniqlash;

Jamiyatning faoliyati maqsadlariga erishishga xalakit berishi mumkin bo'lgan potensial va mavjud tezkor, moliyaviy, strategik va boshqa risklarni aniqlash va tahlil etish;

Ichki nazoratning muhim tarkibiy qismlarini baholash;

Tijorat jarayonlarning ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash;

Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining ishlashi samaradorligi bahosini va mezonalarini aniqlash;

Moliyaviy va boshqa axborotlarni o'tgan davrlar uchun qiyoslanadigan axborotlarga yoki faoliyatning kutilayotgan natijalariga nisbatan ko'rib chiqish;

Voqealar, operatsiyalar va tranzaksiyalarni hisobga olishning mos usullaridan foydalanish;

Aktivlarning butligini tekshirish;

Ichki nazorat protseduralarini munosib tarzda hujjatlashtirish;

Ichki nazorat tizimining sifatini muntazam baholab borish;

AJning barcha xodimlari e'tiboriga ularning ichki nazorat sohasidagi majburiyatlarini yetkazish;

Jamiyatxodimlari o'rtasida muhim majburiyatlarni (shu jumladan, operatsiyalarni ma'qullash va tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, resurslarni berish, saqlash va olish, operatsiyalarni tahlil qilish va tekshirish bo'yicha majburiyatlarni) taqsimlash;

Operatsiyalarni, faqat tegishli vakolatlar berilgan xodimlar tomonidan tasdiqlanishi va amalga oshirilishi;

Ichki nazorat maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan boshqa protseduralar.

23. Ichki nazorat protseduralarini o'tkazish chog'ida nazorat qilish, kuzatish, tasdiqlash, qaytadan sanash usullari hamda ichki nazorat protseduralarini amalga oshirish uchun zarur boshqa usullar qo'llanadi.

7. YAKUNIY QOIDALAR

24. Ushbu Nizom hamda unga kiritiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalar jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan, majlisda ishtirok etayotgan yoki sirdan ovoz berishda ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi.

25. Ushbu Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar Korporativ maslahatchining, jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining, AJ auditorining, AJ Taftish komissiyasining, jamiyat Ijroiya organining taklifiga binoan kiritiladi.

26. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining va me'yoriy hujjatlarining o'zgarishi natijasida mazkur Nizomning ayrim moddalari ular bilan zid kelib qolsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi hamda Nizomga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va me'yoriy hujjatlariga tayanib ish ko'radi.